

## XALQ AMALIY SAN'ATI NAQQOSHLIK MISOLIDA

***Rahimov Azizbek Yaxshiboyevich, Utaboyev Baxtiyor Safarovich***

*A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti, Tasviriy san'at va*

*muhandislik grafikasi yo'nalishi o'qituvchilari*

*e-mail:rahimovazizbek09@gmail.com*

***Anotatsiya:*** Mazkur maqolada xalq amaliy san'at turlaridan biri bo'lgan naqqoshlik san'atining kelib chiqishi, inqiroz va yuksalish davri shu bilan bir qatorda hozirgi kundagi o'rni va darajasi ko'rsatib berilgan va kerakli adabiyotlar yordamida isbotlangan, ma'lumot o'rnida shuni aytib o'tish joizki, naqqoshlik san'ati insoniyat yaratilgandan buyon, asrlar davomida sayqallanib borayotgan, eng muhimi esa bugungi kungacha saqlanib qolgan haqiqiy san'at turidir.

***Kalit so'zlar:*** o'simliksimon, geometrik, naqsh, ramziy ustivorlik, taraqqiyot, qo'lyozma, feruza, lojuvard, aqiq, nifret.

Qadimgi zamonlarda ham kishilik jamiyati yashayotgan manzillariga, devor-u toshlarga asosan ov jarayonlari, janglar, bayramlar, tantanali marosimlarning suratlarini chizishga harakat qilganlar. Masalan Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa va boshqa obidalar qoldiqlarida shunga o'xshash turli xildagi chizmalarni topish mumkin. Vaqtlar o'tgandan keyin esa diniy bilimlar va boshqa shunga o'xshash voqea hodisalar ro'y bergandan keyin tirik mavjudotning suratlarini chizish man etilib qo'yildi. Balki shu sababli ham tasviriy san'at o'rnini sekin-sekin o'simliksimon hamda geometrik naqshli bezaklar egallay boshladi. Har xil turdagi rangdagi, o'simliksimon va geometrik naqshlarda aqlli va izlanuvchan rassomlar har xil ramziy belgilar yaratishdi va ularga ko'plab sirlarni berkita boshlashdi. Chizilgan tasvirlangan naqshlarda ramziylik ustivorlik darajasiga chiqdi. Otabobolarimiz qadimiy obidalarni nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh otabobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o'rganib chiqib, uylarni ajoyib naqshlar bilan boyitganlar. Naqshlangan

uyda kishilar xotirjam, ruhiy osoyishtalik og‘ushida bo‘lishi, uzoq umr ko‘rishini donishmand bobolar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida isbotlab berganlar. Keksa ustalarimizning aytishlaricha, qadimda naqqoshlik san‘ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki bo‘yagan naqshlari orqali bir-birlari bilan ovozsiz gaplashganlar. Bu esa ularni o‘z kasblarining qay darajada mohir va mehri bo‘lganligining yorqin dalilidir. Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar xayolini o‘ziga tortuvchi, tabiatning go‘zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar. Kishilarni go‘zallik bilan yaqin do‘st, birodar bo‘lishga undaganlar. Arab imlosi, g‘azal, bitiklar, naqshlar, me‘moriy obidalar, tasviriy san‘atning islamiy-tilsimiy turlari eshitish va ko‘rish a‘zolarimiz orqali ruhimizga hissiy quvonch olib keladi. Islom madaniyati ijod dasturida fikr va narsalarning shakl yaxlitligi ramziy-tilsimiy mazmun qobig‘iga o‘ralgan.

Temuriylar davri ya‘ni XIV-XV asrlarda amaliy bezak san‘atining yuksak taraqqiyot topgan davri hisoblanadi. Chunki mahalliy an‘analar bilan birgalikda amaliy bezak san‘ati ya‘ni naqqoshlik O‘rta Sharq badiiy yutuqlariga ham asos solgan. Izlanishlar esa asosan bezak naqshlar sohasida bo‘lgan. Bezakda o‘simlik va gul mavzulari, “girihi” handasaviy naqshlari, yozuvli namoyonlar yetakchilik qilgan. Yog‘och ustunlar va eshiklarning naqsh mujassamoti maydon, belboq, hoshiya kabilarga mutanosib bo‘linib, o‘yma gullar–egiluvchi novdalar va gulli butalar bilan bezatildi. Marmar qabrtoshlari egiluvchan butalar o‘ramidagi o‘ta nafis yozuvlar bilan qoplandi. “Girihi” ko‘rinishidagi handasaviy naqshlar yog‘ochlardan yig‘ilgan sag‘analar, yog‘och va marmar panjaralarda mahorat bilan ishlangan. Mazkur asr kulolchiligida ko‘m-ko‘k tuldagi Xitoy chinnisi ta‘sirida yangi bezash usuli shakllandi, ko‘proq oq-ko‘k sir ishlandi. Tanga, glaptika, metall o‘ymakorligida husnixat hukmronlik qilgan. Kulollikda rangli va bir rangda ishlangan bo‘yama naqshlar saqlanib qolgan qat‘iy sovuq rangli moviy zaminga qora naqsh, oq zaminga ko‘k naqshlar ishlangan.

Koshindagi bezak chiziqlarining mayin va o'quvchanligi bilan farq qiluvchi nafis ko'k-yashil bo'yama naqshlar bilan hamohang bo'lgan bilinar-bilinmas bo'rtma gulli chiroyli idishlar yaratilishi ustalarning katta yutug'i bo'ldi. Naqshlarda o'simlik, hayvon va osmon jismlari mavzu uyg'unlashgan.

Amaliy san'atga bu qadar chuqur falsafiy yondashish natijasida shartlilik, stilizatsiya - ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchayib ketdi. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lgan va hozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg'unligidan va mujassamligidan dalolatdir. Hali hamon amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek hali amaliy san'ati kishilarni badiiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, bo'yachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dong'i ketgan. O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda. Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma'noni bildirib, u qush, hayvonot, o'simlik dunyosi, geometrik va boshqa turli shakllarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezak.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa so'ngi besh yil ichida san'at sohasida ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangidan yangi imkoniyatlar eshigi O'zbekiston yoshlari uchun, san'at ahli uchun, xususan tasviriy san'at va naqqoshlik sohasida faoliyat

olib borayotgan jonkuyar fidokor yoshlarga, qolaversa ularning ustozlariga katta qilib ochib qo'yilmoqda. Misol uchun maktabda va maktabgacha ta'lim muassasalarida texnologiya, tasviriy san'at fanlari chuqur o'rgatilmoqda, bundan tashqari qo'shimcha darslar tashkil etilyapti bularning barchasi san'atga, qaratilayotgan e'tibor natijasidir. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan xulosa shuki, talabalarga boshlang'ich sinflardan boshlab, Texnologiya va dizayn mashg'ulotlarini ham amaliy, ham ilmiy–nazariy jihatdan yaxshi o'qitilishi shart. O'tmishga boqsak ham, qadimda buyuk naqqoshlik san'atning ilmiy asoslarini qo'llash natijasida, katta yutuqlarga erishilgan. Bularni talabalarga o'qitishda didaktiv prinsiplarning asosiysi hisoblangan – ilmiylik prinsipi yetakchi o'rin egallaydi

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Rempel L.I. Pandjara. T.: Gosudarstvenniy izdatelstvo xudojestvennoy literaturo.
2. Zaxidov P.Sh. Ferganskaya rospis. – T.: Gos. izd. xud. lit. Uzbekistana. 1960
- 3.Rempel LI. Arxitekturniy ornament Uzbekistana.
4. Qosimov S.S. Naqqoshlik. - T.: «O'qituvchi» 1982
5. Abdullaev N. San'at tarixi. -T.: «O'qituvchi» 1986.
6. Mirzaaxmedov M. Materiallarga badiiy ishlov berish. - T, «O'qituvchi» 1986.
7. Azimov I. O'zbekiston naqshu nigorlari. – T. G'.G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1987
8. Manakova V.N. O'zbek xonadonining badiiy bezash madaniyati. - T.; G'.G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1989
9. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. - T.; «Mehnat», 1991
10. Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha hujjati. – T.; Qomuslar bosh tahririyati. 1992
11. Abdullaev N. San'at tarixi. 2t-T.; «San'at» 2001.

12. Bositxonov Z. Xandasiy Naqsh (girix)larning yechimlari. –Т.: «Ochiq Jamiyat Instituti ko'mak jamg'armasining O'zbek Vakolatxonasi», 2002
13. Шарипов, Ш. С. (2017). Personality model of modern teacher. *Eastern european Scientific Journal–Germany*, 93-96.
14. Шарипова, Ш. С. (2018). Инновационные технологии в современном учебном процессе. *Молодой ученый*, (9), 185-188.
15. Шарипов, Ш. С. (2000). Педагогические условия формирования изобразительского творчества студентов (на примере факультетов Труда и профессионального образования).
16. Шарипов, Ш. С. (2017). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВУЗОВСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ВАЖНЫЙ ДВИГАТЕЛЬ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 32, pp. 44-46). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
17. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.
18. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.
19. Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ПЕДАГОГИК МАСЪУЛИЯТИ . *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).
20. Убайдуллаев, С., Алибоев, Т.Ч., & Оришев, Ж. Б. (2020). МАТЕРИАЛЛАРНИ КЕСИБ ИШЛАШ АСБОБЛАР ВА ДАСТГОҲЛАР ФАНИДАН АМАЛИЙ-ЛАБОРАТОРИЯ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ УСЛУЛАРИ . *Научное знание современности*, (11), 26-29.
21. Оришев, Ж. Б. (2019). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Интернаука*, (43-2), 70-72
22. Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортикова, О. Ш. (2019). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМДА" ДАРСЛАРДА ЭКОЛОГИК ТАНАФФУС" ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИГА АСОСЛАНГАН ЭЛЕКТРОН ҚЎЛЛАНМАЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ. *Интернаука*, (20-3), 62-63.
23. Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).